
№2 2026

ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№2 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР
Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич
доктор философии (PhD) по психологическим наукам

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ
Реджеп Узюрек - доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Е.Е. - доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Н.Ю. - кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Б.С. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Г.Н. - доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Б.Б. - доктор педагогических наук, профессор
Филиппова О.Г. - доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Мирзаева Ф.О. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев М.М. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Умарова Н.Ш. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Н.З. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Абдуллаева Д.У. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Н.Б. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Джабборов Х.Х. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов М.Р. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева С.М. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева М.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов З.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбанбоев А.Н. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Г.М. - доктор исторических наук, профессор
Давлатова С.Т. - доктор исторических наук, профессор
Курбанова М.Б. - кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Б. - доктор философских наук, профессор
Махмудова Д.А. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Юлдашев С.Р. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Д.Б. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Е.Г. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Джексембаева Г.С. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Жалилов Н.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов А.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова М.М. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Халилова Р.Р. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Ш.У. - доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Ш.Ф. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Ж.Ш. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Ф.Х. - кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

EDITOR-IN-CHIEF
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences

EDITORIAL BOARD
Rejep Uzyurek - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Ye.E. - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina N.Yu. - Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva B.S. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Ibragimova G.N. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov B.B. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova O.G. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Mirzaeva F.O. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Bafaev M.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Umarova N.Sh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Ismoilova N.Z. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Abdullaeva D.U. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Atabayva N.B. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Jabborov Kh. Kh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Akramov M.R. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Tuychieva S.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Gadoeva M.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Rasulov Z.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Qurbonboev A.N. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Tanieva G.M. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova S.T. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Kurbonova M.B. - Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev B. - Doctor of Philosophy Sciences, Professor
Makhmudova D.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Yuldashev S.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Botirova D.B. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Alimova Ye.G. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Dzheksembayeva G.S. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences (Kazakhstan)
Jalilov N.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Vahobov A.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Raxmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Khalilova R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Bobojonov Sh.U. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate Professor
Sharipov Sh.F. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Butayev J.Sh. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Bobojonova F.X. - Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Managing Editor
Xayitov Xayotjon Xikmat ugli

ONALIK FENOMENI: FANLARARO TALQIN VA OILAVIY-PEDAGOGIK MAZMUNI

Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna
Toshkent Gumanitar fanlar universiteti
“Pedagogika” yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada onalik fenomeni turli ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilinib, uning biologik, reproduktiv, psixologik, ijtimoiy va pedagogik jihatlari yoritilgan. Onalikka oid zamonaviy ilmiy qarashlar, ona-bola munosabatlarining psixologik asoslari hamda onalikning oilaviy tarbiya tizimidagi o‘rni tadqiq etilgan. Tadqiqot natijalari onalikni nafaqat biologik hodisa, balki murakkab ijtimoiy-pedagogik institut va oilaviy pedagogikaning muhim kategoriyalaridan biri sifatida talqin etish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: onalik, onalik fenomeni, oilaviy pedagogika, ona-bola munosabatlari, pedagogik kompetensiya, oilaviy tarbiya, ota-onalik, ijtimoiylashuv, pedagogik madaniyat.

Abstract. This article examines the phenomenon of motherhood through various scientific approaches and highlights its biological, reproductive, psychological, social, and pedagogical dimensions. Contemporary scientific perspectives on motherhood, the psychological foundations of mother-child relationships, and the role of motherhood within the family education system are analyzed. The findings indicate that motherhood should be understood not only as a biological phenomenon but also as a complex socio-pedagogical institution and one of the key categories of family pedagogy.

Keywords: motherhood, phenomenon of motherhood, family pedagogy, mother-child relationships, pedagogical competence, family education, parenting, socialization, pedagogical culture.

Аннотация. В данной статье феномен материнства рассматривается с позиций различных научных подходов. Анализируются его биологические, репродуктивные, психологические, социальные и педагогические аспекты. Особое внимание уделяется современным научным представлениям о материнстве, психологическим основам взаимоотношений матери и ребёнка, а также роли материнства в системе семейного воспитания. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости рассматривать материнство не только как биологическое явление, но и как сложный социально-педагогический институт и одну из важнейших категорий семейной педагогики.

Ключевые слова: материнство, феномен материнства, семейная педагогика, отношения матери и ребёнка, педагогическая компетентность, семейное воспитание, родительство, социализация, педагогическая культура.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda oila shaxsning birlamchi ijtimoiylashuv muhiti sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Oilada bolaning ma’naviy, axloqiy, intellektual va emotsional rivojlanishining dastlabki asoslari shakllanadi. Ushbu jarayonda onaning o‘rni beqiyosdir. Bola hayotining ilk davrlaridan boshlab ona nafaqat parvarishlovchi, balki tarbiyachi, kommunikator, ijtimoiy tajriba uzatuvchi va rivojlantiruvchi muhit yaratuvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi [1].

So‘nggi yillarda onalik fenomeni turli fanlar – biologiya, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya va antropologiya doirasida faol tadqiq qilinmoqda. Biroq ko‘plab tadqiqotlarda onalikning alohida jihatlariga e’tibor qaratilgan bo‘lib, uning yaxlit pedagogik mohiyatini ochib berish masalasi hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Shu sababli onalik fenomenini oilaviy pedagogika nuqtai nazaridan tahlil qilish zamonaviy pedagogika va psixologiya fanining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi onalik fenomenining ilmiy-nazariy talqinlarini tahlil qilish hamda uning oilaviy-pedagogik mazmunini ochib berishdan iborat.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Onalik fenomeni ilmiy adabiyotlarda turli nazariy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. John Bowlby (J. Bowlby) va Mary Ainsworth (M. Ainsworth) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ona-bola bog‘lanishining bola psixik rivojlanishidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab bergan [2; 3]. Mualliflar xavfsiz emotsional bog‘lanish bolaning keyingi ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydilar.

Lev Vygotskiy (L.S. Vygotskiy) va Aleksey Leontyev (A.N. Leontyev) tomonidan ishlab chiqilgan madaniy-tarixiy yondashuvga ko‘ra, bolaning rivojlanishi yaqin ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sir jarayonida amalga oshadi. Mazkur muhitning markaziy subyekti sifatida ona bolaning bilish jarayonlari va ijtimoiy tajribasining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi [4].

G.G. Filippova, V.S. Muxina, L.B. Shneyder va L.A. Pyankova kabi olimlar onalikning psixologik va ijtimoiy jihatlarini tadqiq etganlar. Ularning fikricha, onalik biologik vazifadan tashqari, ayolning shaxsiy rivojlanishi, o‘zini anglashi va ijtimoiy rolini amalga oshirishi bilan bog‘liq murakkab fenomen hisoblanadi [5; 6].

O‘zbekistonlik olimlar orasida V.M. Karimova, G‘.B. Shoumarov va Z.T. Nishonova oilaviy munosabatlar, ota-onalik madaniyati hamda oilaviy tarbiyaning

psixologik asoslarini tadqiq etganlar [7; 8]. D.U. Abdullayeva tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda esa o‘zbek oilalarida ona va bola munosabatlarining ijtimoiy-psixologik asoslari hamda milliy-madaniy xususiyatlari yoritilgan [9].

A. Muxsiyeva va U. Abirovalarning “Oila pedagogikasi” o‘quv qo‘llanmasida oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari va onaning pedagogik faoliyati oilaviy tarbiya samaradorligining muhim omili sifatida tavsiflangan [10].

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, unda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini oilaviy pedagogika, rivojlanish psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya hamda kompetensiyaviy yondashuv nazariyalari tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Onalik fenomenining ilmiy-nazariy talqinlari

Onalik fenomeni zamonaviy fanlarda eng murakkab va ko‘p qirrali tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Uning mohiyatini tushuntirishga qaratilgan ilmiy qarashlar biologik determinizmdan tortib sotsiomadaniy konstruktivizmgacha bo‘lgan keng nazariy spektrni qamrab oladi. Mazkur holat onalikning nafaqat individual, balki ijtimoiy, madaniy va pedagogik mazmunga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda onalikning mohiyati borasida yagona yondashuv mavjud emasligi kuzatiladi. Aksincha, turli ilmiy maktablar ushbu fenomenning turli jihatlarini ustuvor deb hisoblaydilar.

Onalikka oid dastlabki nazariy qarashlar asosan biologik determinizm tamoyiliga tayangan. Mazkur yondashuv vakillarining fikricha, onalik ayolning tabiiy biologik vazifasi bo‘lib, uning asosini reproduktiv instinkt tashkil etadi. Evolyutsion biologiya va etologiya vakillari, xususan, K. Lorens (Konrad Lorenz), onalik xulq-atvorining ayrim shakllari biologik jihatdan dasturlashtirilganligini va avlodning yashab qolishiga xizmat qilishini ta’kidlaydilar [11]. Ushbu yondashuv onalikning tabiiy asoslarini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, zamonaviy olimlar uning cheklanganligini ham qayd etadilar. Chunki inson onaligi faqat instinktlar bilan emas, balki madaniy qadriyatlar, ijtimoiy tajriba va pedagogik ta’sirlar bilan ham shakllanadi.

Shu sababli XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab biologik yondashuv tanqid qilina boshladi. Tadqiqotchilar onalikning barcha jihatlarini reproduktiv instinkt bilan izohlash ilmiy jihatdan yetarli emasligini ta’kidladilar. Jumladan, L.B. Shneyder va G.G. Filippova onalik biologik asosga ega bo‘lsa-da, uning mazmuni ayolning shaxsiy tajribasi, oilaviy qadriyatlari va ijtimoiy muhiti ta’sirida shakllanishini qayd etadilar [5; 6]. Ushbu pozitsiya onalikni biopsixososial hodisa sifatida talqin qilish uchun metodologik asos yaratdi.

Psixologik yondashuv doirasida esa onalik ayolning shaxsiy rivojlanishi va identifikatsiyasi bilan bog‘liq fenomen sifatida talqin qilinadi. V.S. Muxina onalikni ayol shaxsining muhim psixologik holati va o‘zini anglash shakli sifatida tavsiflaydi [5]. Uning fikricha, ayolning ona sifatida shakllanishi biologik jarayon emas, balki murakkab psixologik rivojlanish natijasidir. G.G. Filippova esa onalikni ayolning motivatsion-qadriyatli sohasi bilan bog‘lab, uni shaxs rivojlanishining alohida bosqichi sifatida tavsiflaydi [5].

Biroq psixologik yondashuv ham barcha savollarga javob bera olmaydi. Chunki ayrim tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional jihatdan yetuk va psixologik tayyor ayollarda ham onalik uslublari keskin farq qilishi mumkin. Bu esa onalikning shakllanishida nafaqat individual psixologik omillar, balki ijtimoiy va madaniy omillar ham muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Sotsiologik yondashuv vakillari aynan shu jihatga e’tibor qaratadilar. Talcott Parsons, Elisabeth Badinter va L.A. Pyankova kabi olimlarning fikricha, onalik biologik emas, avvalo ijtimoiy rol hisoblanadi [12]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, jamiyat onaga nisbatan muayyan kutishlar, majburiyatlar va xulq-atvor standartlarini shakllantiradi. Natijada ayol o‘zining onalik rolini mavjud ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlar asosida amalga oshiradi. Ayniqsa, Pyankova onalikni ayolning ijtimoiy o‘zini anglashi darajasi va shaxsiy tanlovining mahsuli sifatida baholaydi [12].

So‘nggi yillarda onalikka nisbatan madaniy-konstruktivistik yondashuvlar ham keng tarqalmoqda. Mazkur yondashuv vakillari onalikning mazmuni tarixiy davrlar va madaniy makonlarga qarab o‘zgarib borishini ta’kidlaydilar. Bir jamiyatda “ideal ona” deb baholanadigan xulq-atvor modeli boshqa jamiyatda mutlaqo boshqacha talqin qilinishi mumkin. Shu jihatdan onalik biologik emas, balki madaniy jihatdan konstruksiya qilinadigan hodisa sifatida ko‘riladi.

O‘zbekistonlik olima D.U. Abdullayevaning tadqiqotlari ham ushbu nuqtai nazarni qisman tasdiqlaydi. Olimaning fikricha, o‘zbek oilalarida ona va bola munosabatlari milliy qadriyatlar, avlodlararo munosabatlar, qarindoshlik tizimi va oilaviy an’analar ta’sirida shakllanadi [9]. Bu esa onalikning etnopsixologik va sotsiomadaniy jihatlari mavjudligini ko‘rsatadi.

Oilaviy pedagogika nuqtai nazaridan qaralganda esa yuqoridagi barcha yondashuvlar onalik fenomenining ayrim jihatlarini yoritadi, biroq uning tarbiyaviy mohiyatini to‘liq ochib bera olmaydi. A. Muxsiyeva va U. Abirovalarning ta’kidlashicha, onalik, avvalo, pedagogik faoliyatning o‘ziga xos shakli bo‘lib, unda bola shaxsini shakllantirish, rivojlantirish va ijtimoiylashtirish jarayonlari amalga oshiriladi [10]. Shu sababli oilaviy pedagogika doirasida onalik faqat biologik yoki ijtimoiy rol emas, balki tarbiya subyekti sifatida ko‘riladi.

Muallifning fikricha, zamonaviy ilmiy qarashlar orasida integrativ yondashuv eng asosli hisoblanadi. Chunki onalikni faqat biologik instinkt, faqat psixologik holat yoki faqat ijtimoiy rol sifatida talqin qilish uning mohiyatini toraytirib yuboradi. Aslida onalik biologik imkoniyatlar, psixologik tayyorgarlik, ijtimoiy tajriba, madaniy qadriyatlar va pedagogik faoliyatning o‘zaro integratsiyasi natijasida shakllanuvchi murakkab tizimli hodisadir. Aynan shunday yondashuv onalikning oilaviy pedagogika kategoriyasi sifatidagi mazmunini to‘liq ochib berish imkonini beradi.

Onalikning oilaviy-pedagogik mazmuni

Oilaviy pedagogika nuqtai nazaridan onalik oilaning tarbiyaviy salohiyatini amalga oshiruvchi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Oila tarbiyasining samaradorligi ko‘p jihatdan onaning tarbiyaviy faoliyatni qanday tashkil etishi, bola bilan qanday munosabatlar o‘rnatishi va uning rivojlanish ehtiyojlarini qay darajada hisobga olishi bilan belgilanadi. Shu sababli oilaviy pedagogikada onalik nafaqat shaxsiy yoki oilaviy hodisa, balki tarbiya jarayonining muhim pedagogik resursi sifatida ham qaraladi.

A. Muxsiyeva va U. Abirovalarning ta’kidlashicha, oilaviy tarbiya tizimida ota-onalar, ayniqsa, ona tomonidan amalga oshiriladigan pedagogik ta’sirlar bolaning shaxsiy sifatlari, ijtimoiy xulq-atvori va ma’naviy qadriyatlarining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [10]. Shu nuqtai nazardan, onalik oilaviy tarbiya mazmunini amaliyotga tatbiq etuvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Onalikning oilaviy-pedagogik mazmuni, avvalo, tarbiyaviy funksiyada o‘z ifodasini topadi. Bola hayotining dastlabki davrlarida ona uning rivojlanishiga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatuvchi shaxs bo‘lib, bolaning axloqiy me’yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor namunalarini o‘zlashtirishida muhim rol o‘ynaydi. V.M. Karimovaning ta’kidlashicha, oiladagi sog‘lom psixologik muhit va ota-onalarning pedagogik madaniyati bola shaxsining barkamol rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi [7]. Ushbu muhitni shakllantirishda esa onaning roli alohida ahamiyatga ega.

Oilaviy pedagogikada onalikning rivojlantiruvchi funksiyasi ham muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy rivojlantiruvchi ta’lim nazariyalariga ko‘ra, bolaning kognitiv, emotsional va kommunikativ salohiyati yaqin kattalar bilan hamkorlik jarayonida rivojlanadi [4]. Shu bois ona bolaning bilish faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi, uning qobiliyatlari va qiziqishlarini rivojlantiruvchi pedagogik muhit yaratuvchi subyekt sifatida maydonga chiqadi.

D.U. Abdullayevaning tadqiqotlari ona va bola o‘rtasidagi munosabatlarning sifati bolaning emotsional xavfsizligi va ijtimoiylashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi [9]. Shu sababli onalikning oilaviy-pedagogik mazmunida

emotsional qo‘llab-quvvatlash funksiyasi ham muhim o‘rin egallaydi. Aynan ona tomonidan yaratiladigan emotsional xavfsizlik muhiti bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, mustaqilligi va ijtimoiy faolligining shakllanishiga xizmat qiladi.

Onalikning oilaviy-pedagogik mazmuni madaniy-translyatsion funksiyada ham namoyon bo‘ladi. Har bir jamiyatning ma’naviy qadriyatlari, axloqiy me’yorlari, urf-odatlari va tarbiya an’analari, avvalo, oilada, ko‘p hollarda esa ona orqali keyingi avlodga uzatiladi. Shu jihatdan ona oilaviy va milliy madaniyatning tashuvchisi hamda uzatuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Etnopsixologik tadqiqotlar o‘zbek oilalarida aynan ona bolani milliy qadriyatlar va ijtimoiy me’yorlar bilan tanishtiruvchi asosiy subyektlardan biri ekanligini ko‘rsatadi [9].

Muallifning fikricha, zamonaviy oilaviy pedagogikada onalikning mazmuni tobora kengayib bormoqda. Agar an’anaviy yondashuvlarda onalik ko‘proq parvarish va nazorat funksiyalari bilan bog‘langan bo‘lsa, bugungi kunda onadan pedagogik savodxonlik, refleksiv tafakkur, emotsional intellekt va tarbiyaviy kompetentlik ham talab etilmoqda. Shu sababli “kompetent onalik” tushunchasi zamonaviy oilaviy pedagogikaning muhim ilmiy kategoriyalaridan biriga aylanib bormoqda.

Shunday qilib, onalikning oilaviy-pedagogik mazmuni tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, emotsional-qo‘llab-quvvatlovchi, madaniy-translyatsion va ijtimoiylashtiruvchi funksiyalar birligida namoyon bo‘ladi. Aynan ushbu funksiyalar orqali onalik oilaviy tarbiya tizimining markaziy komponenti sifatida faoliyat ko‘rsatadi va bola shaxsining barkamol rivojlanishini ta’minlaydi.

XULOSA

O‘tkazilgan nazariy tahlillar onalik fenomeni biologik, reproduktiv, psixologik, ijtimoiy va pedagogik jihatlarni o‘zida mujassamlashtirgan murakkab hamda ko‘p qirrali hodisa ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari onalikning mazmunini faqat biologik yoki ijtimoiy rol doirasida tushuntirish mumkin emasligini, aksincha, uni shaxs, oila va jamiyat rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi kompleks fenomen sifatida talqin qilish zarurligini tasdiqladi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, onalikning pedagogik mohiyati bolaning tarbiyasi, rivojlanishi va ijtimoiylashuvini ta’minlashga qaratilgan faoliyatda namoyon bo‘ladi. Ona bolaning birinchi pedagogi sifatida uning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, kommunikativ madaniyati va qadriyatlar tizimining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu sababli onalikni oilaviy pedagogikaning markaziy kategoriyalaridan biri sifatida e’tirof etish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Tadqiqot davomida tahlil qilingan xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari onalikning samaradorligi ko‘p jihatdan onaning pedagogik

kompetensiyasi, emotsional yetukligi, refleksiv qobiliyati va tarbiyaviy mas'uliyatiga bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, D.U. Abdullayeva tomonidan asoslab berilgan ona-bola munosabatlarining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari hamda A. Muxsiyeva va U. Abirovalarning oilaviy tarbiyaga oid ilmiy qarashlari onalikning pedagogik mazmunini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [9; 10].

Muallifning fikricha, zamonaviy sharoitda onalik fenomenining mazmuni sezilarli darajada kengayib bormoqda. Bugungi kunda onadan nafaqat mehr-muhabbat va g'amxo'rlik, balki pedagogik savodxonlik, emotsional intellekt, raqamli madaniyat, refleksiv tafakkur va samarali kommunikativ kompetensiyalar ham talab etilmoqda. Shu sababli "kompetent onalik" konsepsiyasini rivojlantirish zamonaviy oilaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida ham oila institutini mustahkamlash, onalik va bolalikni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Oila jamiyatning tayanchi, muqaddas maskanidir. Oila sog'lom bo'lsa, jamiyat mustahkam bo'ladi, jamiyat mustahkam bo'lsa, davlat barqaror rivojlanadi". Mazkur fikr oiladagi tarbiyaviy muhit va onalik institutining jamiyat taraqqiyotidagi strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Farzand tarbiyasi - kelajak tarbiyasi" degan g'oya ham onalikning pedagogik mohiyatini ochib beradi. Zero, yosh avlodning ma'naviy barkamolligi, intellektual salohiyati va fuqarolik pozitsiyasi, avvalo, oilada va ko'p jihatdan ona tomonidan yaratilgan tarbiyaviy muhit ta'sirida shakllanadi.

Shu munosabat bilan quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

– yosh onalarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan milliy dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

– maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, oliy ta'lim muassasalari va mahallalar hamkorligida "Kompetent onalik maktablari" faoliyatini yo'lga qo'yish;

– yosh onalar uchun pedagogik savodxonlik, emotsional intellekt va ota-onalik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan treninglar hamda psixoedukativ dasturlarni kengaytirish;

– oila, onalik va bola rivojlanishi masalalariga oid zamonaviy ilmiy bilimlarni ommalashtirishga qaratilgan raqamli ta'lim platformalarini rivojlantirish;

– ona-bola munosabatlarini mustahkamlash va oilalarning pedagogik salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks ilmiy-amaliy loyihalarni amalga oshirish;

– onalik fenomenining pedagogik, psixologik va etnomadaniy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan empirik tadqiqotlarni kengaytirish.

Umuman olganda, onalik fenomeni biologik hodisadan ancha keng mazmunga ega bo‘lib, u shaxs rivojlanishi, oilaviy tarbiya va jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli onalikni oilaviy pedagogika nuqtai nazaridan chuqur o‘rganish, uning pedagogik salohiyatini rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etish zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlarining istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. - Toshkent: Adolat, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning oila, xotin-qizlar va yoshlar tarbiyasiga oid nutqlari va ma’ruzalari. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
3. Bowlby J. Attachment and Loss. Vol. 1: Attachment. - New York: Basic Books, 1982. - 425 p.
4. Ainsworth M.D.S., Blehar M.C., Waters E., Wall S. Patterns of Attachment: A Psychological Study of the Strange Situation. - Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1978. - 391 p.
5. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. - 330 p.
6. Lorenz K. On Aggression. - New York: Harcourt, Brace & World, 1966. - 306 p.
7. Delors J. Learning: The Treasure Within. Report to UNESCO of the International Commission on Education for the Twenty-first Century. - Paris: UNESCO Publishing, 1996. - 288 p.
8. Выготский Л.С. Педагогическая психология. Москва: Педагогика-Пресс, 1999. - 536 с.
9. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. - Москва: Политиздат, 1977. - 304 с.
10. Мухина В.С. Возрастная психология: феноменология развития. - Москва: Академия, 2000. - 456 с.
11. Филиппова Г.Г. Психология материнства. - Москва: Институт психотерапии, 2002. - 240 с.
12. Шнейдер Л.Б. Психология семейных отношений. - Москва: Академический проект, 2000. - 512 с.
13. Пьянкова Л.А. Материнство как ресурс психолого-педагогической и социальной поддержки детства на современном этапе // Педагогическое образование в России. - 2014. - № 12. - С. 156-161.

14. Бадинтер Э. Конфликт: женщина и мать / пер. с франц. - Москва: Новое литературное обозрение, 2015. - 304 с.
15. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 2018. - 320 b.
16. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. - Toshkent: Sharq, 2008. - 256 b.
17. Nishonova Z.T. Oila va shaxs rivojlanishi psixologiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2016. - 280 b.
18. Abdullayeva D.U. O‘zbek oilalarida ona va bola munosabatlarining ijtimoiy-psixologik asoslari: 19.00.05 - Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo‘yicha psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. - Toshkent, 2024.
19. Muxsiyeva A., Abirova U. Oila pedagogikasi: o‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. - 240 b.
20. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. - Toshkent: O‘qituvchi, 2010. - 540 b.
21. Davletshin M.G. Psixologiya. - Toshkent: O‘qituvchi, 2002. - 512 b.
22. Musurmonova O. Oila ma’naviyati va tarbiya. - Toshkent: O‘qituvchi, 2012. - 224 b.

YOSHLAR HUQUQIY ONGINI SHAKLLANTIRISH – HUQUQIY NIGILIZMGA QARSHI KURASHNING USTUVOR OMILI Turdiyev Bexruz Sobirovich	6
TA'LIM JARAYONIDA AKADEMIK STRESS VA UNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich	**12**
ZAMONAVIY YOSHLARDA O'ZIGA BAHONI ADEKVATLASHTIRISH ORQALI STRESSGA BARQARORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna., Ismoilova Moxinur Kamilovna	**17**
АЛГОРИТМ ПРОВЕДЕНИЯ НАРРАТИВНО-ЭКСПОЗИЦИОННОЙ ТЕРАПИИ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ РЕАБИЛИТАЦИИ ДЕТЕЙ, ПЕРЕЖИВШИХ ТРАВМАТИЧЕСКИЙ ОПЫТ В УСЛОВИЯХ ТЕРРОРИСТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ Юлдашев Санжар Рузимуродович	**25**
OLIMPIYA TERMA JAMOASI SPORTCHILARINI MUSOBAQAOLDI PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI Nazarov Davron Baxtiyor o'g'li	**38**
IJTIMOIY TARMOQLARDA YOLG'ON AXBOROTLARGA MOYILLIKNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI VA NAMOYON BO'LISH MEXANIZMLARI Nurmatov A.N	**46**
O'SMIR SUZUVCHILARDAGI ICHKI NIZOLAR VA ULARNING SPORT FAOLIYATIGI TA'SIRI Mavlanov Donyor Ergash o'g'li	**54**
YOSHLARNI NIKOH YOSHI HAQIDAGI ADEKVAT TASAVVURLARI OTA-ONA OILASIDAGI MA'NAVIY MUHITNING BARQARORLIGIGA MOSLIGINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEZONLARI Abdullayeva Aropatxon Rustamovna	**61**

BOLALARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDAGI KOGNITIV, HISSIY-MOTIVATSION VA PEDAGOGIK OMILLAR Yuldasheva Shoxista Tojialiyevna	**67**
DINIY KONTENTNING RAQAMLI AXBOROT MAKONIDA SHAXS ONGIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA'SIRI VA AXBOROT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI Soliyev Otabek Davlatjon o'g'li	**73**
MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA TALABALARGA O'QUV MATERIALLARINI MUSTAQIL O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna	**85**
ONALIK FENOMENI: FANLARARO TALQIN VA OILAVIY-PEDAGOGIK MAZMUNI Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna	**91**
PRAGMALINGUISTIC ASPECTS OF ENGLISH AND UZBEK PRINT AND ONLINE NEWS TEXTS Istamova Dilnoza Sadulloyevna	**100**
PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA RUHIY SALOMATLIKNI SAQLASHDA QONUNLARNING O'RNI VA TA'SIRI Bahodirova Marhaboxon Toxirjon qizi	**106**

LIDERLIK – ILMIY TADQIQOTLARNING PREDMETI SIFATIDA

(Mavzu bosh harflarda, Times New Roman 14 shriftda, 12 ta so‘zdan oshmagan holda)

Abdullayev Abdulla Abdullayevich
Toshkent amaliy fanlar universiteti professori, psixologiya fanlari doktori

(Muallif F.I.Sh., ish joyi, lavozimi, ilmiy daraja va unvoni Times New Roman 14 shriftda to‘liq yozilishi kerak)

Annotatsiya: Maqolaga annotatsiya o‘zbek, rus va ingliz tillarida taqdim etilishi lozim. Annotatsiya maqolaning qisqacha mazmunini yoritib berishi, unda tadqiqotning dolzarbligi, maqsadi, metodologiyasi, asosiy natijalari hamda ilmiy-amaliy ahamiyati qisqacha aks ettirilishi talab etiladi. Annotatsiya hajmi 100-150 ta so‘zdan oshmagan, bir butun matn shaklida yozilishi, unda iqtiboslar, jadvallar, formulalar va adabiyotlarga havolalar keltirilmasligi kerak.

Kalit so‘zlar: kamida 10-15 ta so‘zdan iborat bo‘lishi tavsiya etiladi.

Аннотация: Аннотация к статье должна быть представлена на узбекском, русском и английском языках. Аннотация должна кратко отражать содержание статьи, включая актуальность исследования, цель, методологию, основные результаты и научно-практическую значимость исследования. Объём аннотации не должен превышать 100-150 слов. Текст аннотации оформляется в виде единого текста без использования цитат, таблиц, формул и ссылок на литературу.

Ключевые слова: рекомендуется указывать не менее 10-15 слов.

Abstract: The abstract of the article should be presented in Uzbek, Russian, and English languages. The abstract must briefly reflect the content of the article, including the relevance of the research, its purpose, methodology, main results, and scientific-practical significance. The abstract should not exceed 100-150 words and must be written as a single coherent text without quotations, tables, formulas, or references.

Keywords: it is recommended to provide at least 10-15 keywords.

KIRISH

Maqolaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, muammoning ilmiy va amaliy ahamiyati, mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy qarashlar hamda tadqiqotning maqsadi va vazifalari yoritilishi lozim. Shuningdek, tadqiqot obyekti va predmeti, qo‘llanilgan metodlar hamda maqolaning ilmiy yangiligi qisqacha bayon etilishi tavsiya etiladi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Mazkur bo‘limda tadqiqot mavzusi bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, mavjud nazariy yondashuvlar hamda ilmiy qarashlar tahlil qilinishi lozim. Tadqiqot davomida foydalanilgan adabiyotlar matn mazmuniga mos ravishda [1], [2], [3] ko‘rinishida havola tarzida berilishi tavsiya etiladi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan ilmiy metodlar, tahlil usullari, ma’lumotlar manbalari, tadqiqot obyekti va predmeti hamda metodologik yondashuvlar

yoritilishi zarur. Ushbu bo‘lim tadqiqotning ilmiy asoslanganligini va natijalarning ishonchliligini ko‘rsatib berishi kerak.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo‘limda tadqiqot jarayonida olingan natijalar ilmiy asosda tahlil qilinishi, ularning mazmun-mohiyati ochib berilishi hamda muammo yechimiga oid ilmiy xulosalar bayon etilishi lozim. Tahlil jarayonida statistik ma’lumotlar, jadvallar, diagrammalar va boshqa tahliliy materiallardan foydalanish tavsiya etiladi. Olingan natijalar mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy qarashlar bilan qiyosiy tahlil qilinishi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy аҳамияти asoslab berilishi zarur. Ushbu bo‘limda keltirilgan fikr va ma’lumotlarga tegishli adabiyotlar [1], [2], [3] ko‘rinishida havola tarzida berilishi tavsiya etiladi.

XULOSA

Mazkur bo‘limda tadqiqot natijalari umumlashtirilib, mavzu yuzasidan asosiy ilmiy xulosalar bayon etilishi lozim. Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlangan muammolar, ularning yechimiga oid ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar keltirilishi tavsiya etiladi. Xulosa qismida tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati, uning istiqboldagi ilmiy izlanishlar uchun ahamiyati ham qisqacha yoritilishi zarur. Mazkur bo‘lim aniq, qisqa va mantiqiy yakunlangan shaklda bayon etilishi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Mazkur bo‘limda maqola tayyorlash jarayonida foydalanilgan ilmiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar, monografiyalar, ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar, konferensiya materiallari hamda internet manbalari tartib asosida keltirilishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati 5 ta manbaadan kam bo‘lmagan manba ko‘rinishida taqdim etishi shart. Bibliografik tavsif APA 7th Edition yoki Harvard uslubida rasmiylashtiriladi.

NASHR ETIKASI VA AKADEMIK HALOLLIK

Jurnal faoliyatida xalqaro nashriyot etikasi tamoyillari, jumladan COPE (Committee on Publication Ethics) tavsiyalariga amal qilinadi. Mualliflar tadqiqot natijalarining haqqoniyligi, ma’lumotlarning ishonchliligi hamda mualliflik huquqlariga rioya etilishi uchun mas’uldirlar.

Plagiat, ma’lumotlarni soxtalashtirish, mualliflikni noto‘g‘ri ko‘rsatish, bir tadqiqotni takroran nashr etish va boshqa akademik qoidabuzarlik holatlari maqolani rad etish uchun asos hisoblanadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanilgan hollarda ularning qo‘llanilishi maqolaning metodologik qismida ochiq ko‘rsatilishi lozim.

TAQRIZLASH VA NASHR ETISH TARTIBI

Jurnalga kelib tushgan barcha maqolalar dastlabki texnik ekspertizadan o‘tkaziladi hamda ilmiy talablarga mos kelgan maqolalar ikki tomonlama anonim taqrizlash (Double Blind Peer Review) jarayoniga yuboriladi. Taqrizchilar xulosasi asosida maqola qabul qilinishi, qayta ishlash uchun muallifga yuborilishi yoki rad etilishi mumkin.

NAMUNA

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida PF–6079-son Farmon. https://lex.uz
2. Creswell, J. W., & Creswell, J. D. (2018). Research design: Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches (5th ed.). Sage Publications.

3. Abdullaev, A. A. (2024). Digital transformation in higher education. In Proceedings of the International Conference on Educational Innovation (pp. 145–152). Atlantis Press.
4. Hwang, G. J., Xie, H., Wah, B. W., & Gašević, D. (2020). Vision, challenges, roles and research issues of artificial intelligence in education. Computers and Education: Artificial Intelligence, 1, Article 100001. https://doi.org/10.1016/j.caeai.2020.100001
5. Ashurov, R. R. (2026). O‘quvchilarni intellektual rivojlantirishning psixologik omillari. Maktabgacha va maktab ta’limi, 4(2). https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/4847
6. UNESCO. https://www.unesco.org

(Maqola matni to‘liq Times New Roman 14 shriftda 1,15 intervalda tayyorlanishi kerak)

Maqola qo‘lyozmasini quyidagi manzillarga yuborishingiz mumkin:
Telegram manzil: https://t.me/fanlararotadqiqotlar yoki @sarhad_5

Rasmiy telegram kanali: https://t.me/fanlararoilmiytadqiqotlar

Jurnal sayti: https://fanlararotadqiqotlar.uz/

☑ **Biz bilan ilmiy hamkorligingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz.**
JURNAL TAHRIRIYATI
https://t.me/fanlararotadqiqotlar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/